



## FAN VA TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTI

## DEVELOPMENT OF SCIENCE AND TECHNOLOGI



*1*  

---

*2026*

**Tahririyat hay'ati raisi:**  
**SIDDIQOVA S.G'. –**  
**Buxoro davlat texnika universiteti rektori**

**Muovini:**  
**NIZAMOV A.B. –**  
**BuxDTU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori**  
**Tahrir hay'ati:**

**MUQIMOV K.M. –** O'zR FA akademigi (O'zMU)  
**JALILOV A.T. –** O'zR FA akademigi (Toshkent kimyo-texnologiya ITI)  
**NEGMATOV S.N. –** O'zR FA akademigi ("Fan va taraqqiyot" DUK)  
**BAHODIROV G'.A. –** t.f.d., professor, O'zR FA bosh ilmiy kotibi  
**XAMIDOV O.X. –** iqtisod fanlari doktori, professor (BuxDU)  
**JALILOV T.K. –** iqtisod fanlari doktori (DSc), professor (TKTI)  
**PARDAYEVA M.D. –** BuxDTU yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori, falsafa fanlari doktori (DSc)  
**XOJIYEV A.X. –** o'quv ishlari bo'yicha prorektor, texnika f.f.d. (PhD)  
**SAIDOV S.B. –** Buxoro DTU moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektori  
**QURBONOV J.M. –** texnika fanlari doktori, professor (Samarqand ISI)  
**ADIZOV B.Z. –** texnika fanlari doktori (DSc), pprofessor, O'zRFA UNKI  
**ASTANOV S.X. –** fizika-matematika fanlari doktori, professor  
**RAXMONOV X.Q. –** texnika fanlari doktori, professor  
**VOXIDOV M.M. –** texnika fanlari doktori, professor  
**JO'RAYEV X.F. –** texnika fanlari doktori, professor  
**SADULLAYEV N.N. –** texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**MAJIDOV Q.X. –** texnika fanlari doktori, professor  
**FOZILOV S.F. –** texnika fanlari doktori, professor  
**ISABAYEV I.B. –** texnika fanlari doktori, professor  
**ABDURAHMONOV O.R. –** texnika fanlari doktori, professor  
**GAFUROV K.X. –** texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**XAYDAROV A.A. –** texnika fanlari doktori (DSc), dotsent  
**JO'RAYEV F.O'. –** texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**MURADOVA F.R. –** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
**JUMAYEV M.R. –** fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor  
**YUNUSOVA G.S. –** falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**BOBOYEV A.Ch. –** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**TO'XTAYEVA Z.Sh. –** texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**MAXMUDOV M.J. –** texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**HAYITOV R.R. –** texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**BOZOROV G'.R. –** texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**BOLTAYEV Z.I. –** fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor  
**OLTIYEV A.T. –** texnika fanlari doktori, (DSc)  
**JALILOV R.B. –** texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**MAXMUDOV M.I. –** texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**MAJIDOVA N.Q. –** texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**AXMEDOV V.N. –** texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**MAXMUDOV R.A. –** texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**PULATOVA M.I. –** fizika-matematika fanlari nomzodi, professor  
**RAHMATOV Sh.A. –** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**OCHILOV A.R. –** texnika fanlari doktori (DSc), dotsent  
**O'RINOV U.A. –** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
**PO'LATOVA S.U. –** texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**SAMIYEVA Sh.X. –** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
**TESHAYEV M.X. –** fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor  
**XAITOV V.U. –** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**XOJIYEV Sh.M. –** texnika fanlari doktori (DSc), dotsent  
**XAYITOV Sh.N. –** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**ZOIROV E.X. –** falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent  
**NARZIYEV M.S. –** texnika fanlari doktori (DSc), dotsent  
**NAMAZOVA N.J. –** iqtisodiyot fanlari b.f.d. (PhD), dotsent

**Bosh muharrir: DO'STOV H.B. –** kimyo fanlari doktori, professor

**Muharrirlar: Artikova M.M., Istamova G.X.**  
**Musahhih: Barakayeva D.F.**

**FAN VA TEXNOLOGIYALAR**  
**TARAQQIYOTI**  
**ILMIY-TEXNIKAVIY JURNAL**

**DEVELOPMENT OF SCIENCE**  
**AND TECHNOLOGY**  
**SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL**

*Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyati boshqarmasida 2014 yil 22-sentyabrda № 05-066-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan*

*Muassis:*  
*Buxoro davlat texnika universiteti*

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2017 yil 29-martdagi №239/5-sonli qarori bilan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. 2019 yilda O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining qarorlari bilan qayta ro'yxatdan o'tkazilgan.*

*Tahririyat manzili:*  
*200117, Buxoro shahri, Q. Murtazoyev ko'chasi, 15-uy, Buxoro davlat texnika universiteti*

*Tel: 0(365) 223-92-40*

*Faks: 0(365) 223-78-84*

*E-mail: [fantt\\_jurnal@umail.uz](mailto:fantt_jurnal@umail.uz)*

*Jurnalning to'liq elektron varianti bilan <http://journal.bstu.uz> sayti orqali tanishish mumkin.*

*Ushbu jurnalda chop etilgan materiallar tahririyatning yozma ruxsatisiz to'liq yoki qisman chop etilishi mumkin emas. Tahririyatning fikri mualliflar fikri bilan har doim ham mos tushmasligi mumkin. Jurnalda yoritilgan materiallarning haqqoniyligi uchun maqolalarning mualliflari va reklama beruvchilar mas'uldirlar.*

# MUNDARIJA – СОДЕРЖАНИЕ – CONTENT

<b>TEXNIKA, TEXNOLOGIYA VA JIHOZLAR</b>	
<b>Normayev Q.H., Pardayeva Sh.S., Pirnazarov Sh.V., Ashirova M.R., Jalg‘asova G.S.</b> Burg‘ilash mashinalari va ularning mexanizmlarini samarali qayta tiklash texnologiyalari. . . . .	<b>5</b>
<b>Azamjonov R.S.</b> Eksploatatsiyadagi avtoyo‘l ko‘priklarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish usulini takomillashtirish . . . . .	<b>11</b>
<b>Xolmuxammadiyev A.M., Toshev Sh.O.</b> Burg‘ulash eritmasidan markazdan qochma separator yordamida yengillashtirilgan eritma tayyorlash texnologiyasi . . . . .	<b>15</b>
<b>Джураев Х.Ф., Ўктамова Ш.Х.</b> Ковок уруғи қобиғининг синдириш кучларини аниқлаш методикаси . . . . .	<b>20</b>
<b>Mansurov O.A.</b> Improving the drying process of fruits using convective method. . . . .	<b>24</b>
<b>Jo‘rayev F.O‘., Jo‘rayev A.A., Saidova G.K.</b> Uneversal qurilmaning yumshatuvchi ish oraganining parametrlarini uning ish ko‘rsitkichlariga ta’siri. . . . .	<b>27</b>
<b>Авлиякулов Н.Н.</b> Достижение качества измерительных процессов при метрологическом обеспечении производства . . . . .	<b>32</b>
<b>Do‘stov H.B., Rahimov B.R., Savriyev F.A.</b> Suvlangan gaz quduqlarini qayta ishga tushirish texnologiyasini takomillashtirish tahlili. . . . .	<b>36</b>
<b>KIMYO VA KIMYOVIY TEXNOLOGIYALAR</b>	
<b>Toshboyev S.O‘., Panoyev E.R., Hasanov Z.Z.</b> Gazlarni tozalashda qo‘llaniluvchi absorbentlarning tavsifi va unda hosil bo‘ladigan ko‘piklanish sabablari. . . . .	<b>43</b>
<b>Умаров С.Х., Рустамов В.Дж., Халлоков Ф.К., Ходжаев У.О., Нарзуллаева З.М.</b> Механизм отрицательной фотопроводимости в TiGaSe <sub>2</sub> . . . . .	<b>47</b>
<b>Фозилов Х.С., Туробжонов С.М., Фозилов С.Ф.</b> Маҳаллий иккиламчи хом ашё – куйи молекулали полиэтиленни оксидлаб синтетик юқори ёғ кислоталари олиш ва уларнинг физик-кимёвий хоссалари. . . . .	<b>52</b>
<b>Абдирахимов И.Э.</b> Способы предотвращения образования гидрата при переработке газов. . . . .	<b>57</b>
<b>Alinazarov A.X., Shariboyev N.Y., Jo‘raxanov D.M.</b> Anaerob parchalanish jarayonida harorat barqarorligining metanogen bakteriyalar faolligiga ta’siri va uni quyoshli issiqlik tizimi orqali ta’minlash. . . . .	<b>61</b>
<b>Abdirakhimov I.E.</b> Anticorrosion properties of copper phosphide. . . . .	<b>66</b>
<b>Norqulov J.F., Ibodullayev M.X., Abduraxmonov O.R., Kodirov O.Sh.</b> Amin eritmalarini issiqlikka bardoshli tuzlardan tozalash jarayonini modellashtirish. . . . .	<b>72</b>
<b>Абдирахимов И.Э., Буронов Ф.Э., Курбанов А.Т.</b> Исследование технологических параметров, рекомендованных для синтеза этилена из метана. . . . .	<b>79</b>
<b>Rahimov B.R.</b> Yuqori qatronli neftlarning qovushqoqligini pasaytiruvchi depresantlar kompozitsiyasini ishlab chiqish. . . . .	<b>86</b>
<b>Эшдавлатова Г.Э., Камолов Л.С.</b> Определение концентрации диэтанолamina титриметрическим методом . . . . .	<b>91</b>
<b>Rahimov B.R.</b> Qoldiq neftlarni olishda chuqurlik nasos qurilmasini takomillashtirishning dolzarb muamolari. . . . .	<b>96</b>
<b>Yuldashev T.R., Buronov F.E., Hafizov S.Sh.</b> Tabiiy gazning tarkibidagi zaharli komponentlarni aminlar yordamida tozalash jarayonlari. . . . .	<b>100</b>

## MASHINASOZLIK VA ENERGETIKA

<b>Bafoyev D.X.</b> Detallar sirtini plastik deformatsiyalash va bir tekis mikrorelefnı shakllantirish	<b>107</b>
<b>Majitov J.A.</b> Bioreaktor devorining turli sirtlarida issiqlik berish koeffitsiyentlarini hisoblash va tahlil etish. . . . .	<b>112</b>
<b>Azamov S.S.</b> Uch fazali tok o'zgartkichlari yordamida asinxron motorlarni himoya qilish tizimi tatqiq etish. . . . .	<b>118</b>
<b>Maxmudov M.I., Qo'shshayeva M.R., Nurov S.S., Timirov H.N., Sayfiyev H.O.</b> Quyosh panellarining samaradorligiga changlanganlikning ta'sirini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili. . . . .	<b>122</b>
<b>Атауллаев А.О.</b> Исследование и разработка виброустойчивых инклинометрических преобразователей для систем контроля и управления. . . . .	<b>128</b>
<b>Tovboyev A.N., Tog'ayev I.B.</b> Tojlanish jarayonining yuqori kuchlanishli havo liniyalaridagi quvvat yo'qotishlariga ta'sirini baholash. . . . .	<b>135</b>
<b>Murodov K.J.</b> Ko'p qavatli binolarning vertikal chiqindi quvurlaridagi suyuqlik oqimlaridan elektr energiya hosil qilish. . . . .	<b>141</b>
<b>Xamroyev X.X.</b> Mexanik ishlov berishda sirt qatlamining mexanik xususiyatlari. . . . .	<b>145</b>
<b>Tojimurodov D.D.</b> Asinxron motorlarni nosimmetrik rejimlari. . . . .	<b>149</b>
<b>Sadullayev N.N., Nematov Sh.N., To'xtayev Sh.B., Soliyeva Z.N., Murtazoyev F.F.</b> O'zbekistonda quyosh sovtutish tizimlari va ularning texnik imkoniyatlari. . . . .	<b>154</b>

## INFORMATIKA VA AXBOROT – KOMMUNIKATSION TIZIMLAR

<b>Babomuradov O.J., Kuyliyeva F.A.</b> Statistical analysis of social network messages. . . . .	<b>163</b>
<b>Madaminov U.A., Qodirov D.R.</b> Katta hajmli ma'lumotni parallel qayta ishlashda Hadoop MapReduce tizimini qo'llash. . . . .	<b>168</b>
<b>Каххоров М.М.</b> Моделирование ветровой турбины типа Дарье и обоснование её параметров в системе Ansys Fluent. . . . .	<b>173</b>
<b>Maxmudov M.Sh.</b> Relief morfometrik ko'rsatkichlari asosida marshrutlashning model va algoritmlari. . . . .	<b>179</b>

## OZIQ-OVQAT SANOATI TEXNOLOGIYALARI

<b>Ravshanov S.S., Botirov M.Sh., Ergashev A.M., Mirzaev J.D., Shodmonqulova Q.</b> Quruq iqlimda yetishtirilgan bug'doy donini ochiq omborlarda saqlashning mahsulot xossalariga ta'siri. . . . .	<b>184</b>
<b>Sharipov N.Z., Qo'ldosheva F.S.</b> Gilos danagidan moy olish jarayonini infraqizil nurlar yordamida jadallashtirish. . . . .	<b>187</b>
<b>Шарипов Н.З.</b> Интенсификация процесса получения масла из ядра косточек вишни в поле сверхвысокочастотного тока. . . . .	<b>190</b>
<b>Баракаев Н.Р., Шукуров Ю.У.</b> Мева ва сабзавотларни сублиматия йўли билан қуритишнинг илмий асослари. . . . .	<b>194</b>
<b>Ibragimov R.R., Sharipov N.Z.</b> Bodringni konservalash jarayonida noan'anaviy usulda issiqlik ishlov berish jarayonini nazariy asoslari. . . . .	<b>199</b>
<b>Kuliyev N.Sh.</b> Meva va sabzavot sharbatlarini ko'pirtirishda ko'pik hosil qilish va emulgirlash xususiyatlarining dinamikasi. . . . .	<b>203</b>
<b>Мухамедова М.Э.</b> Разработка рецептуры диабетических сдобных сухарей с использованием синергии растительных компонентов . . . . .	<b>209</b>
<b>Хужакулов У.К., Мажидова Н.К., Мажидов К.Х.</b> Исследование показателей качества местных сортов овощной продукции длительного хранения. . . . .	<b>220</b>

<b>Файзиев А.А., Ахмедов В.Н., Кедельбаев Б.Ш.</b> Технология приготовления натурального мясного полуфабриката ферментированного бифштекса . . . . .	<b>227</b>
<b>TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYALARI</b>	
<b>Ramazonov S.S., Ismoyilov F.B.</b> Tola sifatini yaxshilash va tozalash maqsadida jinlash mashinasini ishchi qismlarini takomillashtirish. . . . .	<b>233</b>
<b>Muxitdinova M.A., Bebutova N.N.</b> Milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi: O‘zbek libos dizaynida yangi yo‘nalishlar. . . . .	<b>237</b>
<b>Nematova L.X., Qodirova D.X.</b> Yoshi katta ayollar fe‘l atvori belgilari bo‘yicha iste‘molchilarning tipologik xususiyatlarini aniqlash. . . . .	<b>242</b>
<b>Saidova A.S., Saidova G.Sh., Fayzilloyeva N.B.</b> Tikuv mashinasining tahlama qurilmadagi taxlam hosil qilishda takomillashgan tahlam berishdagi tishlarini turli ko‘rinishda choklarga ta‘siri. . . . .	<b>246</b>
<b>Совутов М.Э., Мусаев Н.М., Холиқов К.М., Муқимов М.М.</b> Иссиқлик сақлаш хусусияти юқори бўлган трикотаж тўқималарининг физик-механик кўрсаткичлари тадқиқи . . . .	<b>251</b>
<b>Shodmonova M.S.</b> Elastikligi yuqori bo‘lgan polimer kompozitsiya olish usulini ishlab chiqish . . . . .	<b>258</b>
<b>Садуллаева Д.А.</b> Современные материалы: Хан-атлас – традиция и инновация. . . . .	<b>261</b>
<b>Джурраев А., Росулов Р.Х., Пардаев Б.Ч., Имомназаров М.С.</b> Пахтани майда ифлосиклардан тозалагичнинг самарали конструкцияси. . . . .	<b>267</b>
<b>Aliyev Sh.B.</b> Tikuv mashinasining tishli reykasini lazer nuri yordamida termik ishlov berishning matematik modeli. . . . .	<b>270</b>
<b>Musayev S.S., Qodirov T.J.</b> Reseptura ko‘rsatkichlarining poliolefin va etilenpropilen kauçhugi asosidagi poyabzal kompozitsiyalarining iste‘mol va texnologik xususiyatlariga ta‘siri.	<b>275</b>
<b>Amonov A.R., Muxammedjanov M.M.</b> Tikuv mashinasi qavariq rezinali vtulkali qayishqoq tayanchlarga o‘rnatilgan bosh vali tebranish amplitudasi tahlili. . . . .	<b>281</b>
<b>Berdimuratov U.T., Rosulov R.X., Pardayev B.Ch.</b> Arrali jinlar konstruksiyasi, asosiy ishchi organlari, ishlash jarayoni. . . . .	<b>284</b>
<b>Muxammedova M.O., Axmedov J.J.</b> O‘smirlar uchun soddalashtirilgan ortopedik poyabzal elementlarining konstruktiv yechimlarini ishlab chiqish. . . . .	<b>286</b>
<b>Temirova G.I., Shodmonova M.S.</b> Polimer kompozitsiya asosida ko‘p qatlamli mo‘ynali paketlar tayyorlash texnologiyasi. . . . .	<b>291</b>
<b>Saidova X.X., Murodova Z., Ulugova N.</b> 3D va ko‘p o‘lchovli geometrik yondashuvlar asosida bolalar kiyimini konstruktiv loyihalash. . . . .	<b>295</b>
<b>Kuliyeva D.R.</b> Bazalt mato qo‘llanilgan maxsus kiyim turini tanlash va konstruksiyasini ishlab chiqish . . . . .	<b>299</b>
<b>Sharipov J.O., Sayitqulov S.O., Begmurodov A.F.</b> Detallarni yeyilishi va korroziyalanishiga asosiy sabablar hamda ulardan himoyalaniş. . . . .	<b>306</b>
<b>Toshpulotov L.I., Xamrayeva S.A.</b> Turli o‘rilishli ikki qatlamli ko‘ylakbop matolarning mexanik va deformatsion xususiyatlarining o‘zgarishi. . . . .	<b>309</b>
<b>Sayitqulov S.O., Razzoqov R.R.</b> Paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinasining yangi konstruksiyasini ishlab chiqish. . . . .	<b>314</b>
<b>Qodirova S.X.</b> Ayollar ustki liboslari bo‘yicha istiqbolli moda yo‘nalishlarini tahlil qilish	<b>318</b>
<b>Каримова Н.Х.</b> Оценка свойств двухслойных трикотажных тканей на основе структурного и механического анализа противостоячивости к трению и разрывного удлинения . . . .	<b>322</b>
<b>Maxmudova X.M.</b> Paxta quritishning ahamiyatliligi va undagi texnik muammolar. . . . .	<b>326</b>
<b>Behbudov Sh.H., Samadova M.O.</b> Ip va matoga ta‘sir etuvchi tashqi kuchlar asosida tikuv mashinasi bo‘g‘inlarining harakat tenglamalarini tahlil qilish. . . . .	<b>332</b>

<b>Шопулатов А.А., Райимкулов Ж.К., Бердимуратов У.Т., Росулов Р.Х.</b> Пахтани майда ифлосликлардан тозалашда қозикчали-планкали барабан планкаларининг таъсири . . . . .	<b>336</b>
<b>Sultonov M.M., Aloxodjayev A.M., Mirzaaxmedova D.Yu.</b> Takomillashtirilgan tozalash qurilmasining texnologik parametrlarini tadqiq qilish. . . . .	<b>340</b>
<b>Azimova G.A., Shokirov L.B.</b> Mahalliy xomashyolarga asoslangan yarim jun to‘qimalar ishlab chiqishning dolzarb masalalari. . . . .	<b>350</b>
<b>Agzamova S.M., Gulyayeva G.X., Mukimov M.M., Karimova N.H.</b> Turli xomashyoli ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining sifat ko‘ratkichlarini kompleks baholash. . . . .	<b>354</b>
<b>ANIQ VA IJTIMOIIY-IQTISODIY FANLAR</b>	
<b>Mannonov Y.O.</b> Kitobxonlik madaniyatini oshirishning ayrim masalalari. . . . .	<b>360</b>
<b>Мухамадиев Б.Т, Мухамадиева З.Б., Джамалов С.Ш.</b> Значение сбалансированного кишечного микробиома в укреплении физического и психологического здоровья . . . . .	<b>363</b>
<b>Xakimova M.Y.</b> Elektron kutubxonani yaratishda zamonaviy dasturiy-texnik ta‘minot . . . . .	<b>372</b>
<b>Шарипов М.З., Назаров Э.С., Зокирова З.М., Иброхимова С.Ш., Муминов Ш.Х.</b> Структура и свойства одномерных микромагнитных конфигураций в ферромагнитных кристаллах. . . . .	<b>375</b>
<b>EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI</b>	
<b>Мамедов Р.А., Жамолов Ж.Ж.</b> Оценка низконапорного гидроэнергетического потенциала водозаборных сооружений и ирригационных каналов. . . . .	<b>381</b>
<b>Мамедов Р.А.</b> Исследование зависимости выхода водорода от термохимических характеристик электролита в процессе электролиза. . . . .	<b>391</b>

## KITOBXONLIK MADANIYATINI OSHIRISHNING AYRIM MASALALARI

Mannonov Y.O.

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti.*

*Annotatsiya.* Maqolada kitob va kutubxona haqidagi fikrlar, davlatimiz tomonidan kitobxonlikka bo'lgan e'tibor, amalga oshirilayotgan ishlar, kitobxonlik madaniyatini oshirishning o'ziga xos xususiyatlar haqida so'z yuritiladi.

*Kalit so'zlari:* axborot-kutubxona, kitobxon, kitobxonlik madaniyati.

## SOME ISSUES OF IMPROVING THE READING CULTURE.

Mannonov Y.O.

*Uzbekistan state institute of arts and culture.*

*Abstract.* The article discusses ideas about books and libraries, the attention paid to reading by our state, the work being done, and the specific features of improving reading culture.

*Keywords:* information library, reader, reading culture.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida yoshlarni ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, ularda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, Vatanga muhabbat, milliy an'analarga hurmat, insonparvarlik, halollik, burch, o'z huquqlarini himoya qilish, kasbga hurmat kabi fazilatlarini singdirishda kitob va kutubxonalarning roli va ahamiyati benazirdir. Kitob va kutubxona insonni tarbiyalash, uning tafakkurini oshirish, fikrlash tarzini shakllantirish va uning barkamol yetuk shaxs bo'lib yetishishida muhim rol o'ynaydi. Kitoblar va kutubxonalar yozuvga asoslangan aloqalarning turli davrlarida barcha sohalarida insonlarga katta imkoniyatlar ochib berdi. Shunga asosan bugungi kunda kitob va kutubxonalarni jamiyatimizda madaniyatining ko'p sonli vazifalarini hal qilish atrof-muhit hodisalarga nisbatan tahliliy yondashuvlarni o'zlashtirish, bilimlar ortirish, dunyoqarashni o'stirish va ayniqsa Davlatimiz siyosatini to'g'ri tushunishda yosh avlodga betakror hissasini qo'shaytganligini baralla aytishimiz mumkin.

Yozuvning paydo bo'lishi va hujjatli manbalar, qo'lyozma va keyinchalik bosma kitoblarning ko'payishi kutubxonalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Kutubxonalar miloddan avvalgi 2 ming yillikda vujudga kelib, asosan saroylarda, qadimgi Misr va Rim ibodatxonalarida qoshida, madrasalarda kutubxonalar bo'lgan. Qadimgi davrdagi kutubxonalardan eng mashuri Aleksandriya kutubxonasi hisoblangan. G'arbiy Yevropada ilk o'rta asrlarda monastir va ibodatxonalar qoshida kutubxonalar tashkil etilgan. O'zbekiston hududida miloddan avvalgi 1 ming yillikning so'ngi asrlarida dastlabki kutubxonalar paydo bo'lgan. Kutubxona so'zi kutub - arabcha "kitoblar", xona -forscha "uy" degan ma'noni anglatadi. Kutubxona – bosma va ayrim qo'lyozma asarlardan ommaviy foydalanishni ta'minlovchi madaniy - ma'rifiy va ilmiy muassasa hisoblanib, unda muntazam ravishda bosma asarlarni to'plash, saqlash, targ'ib qilish va kitobxonlarga yetkazish, shuningdek, axborot bibliografik ishlar olib boriladi. Foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish kutubxonaning asosiy faoliyati bo'lib, qolgan barcha faoliyatlar (kitob fondini butlash, uni tashkil etish, to'ldirish va h.k) asosiy faoliyat uchun xizmat qiladi. Foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishning asosiy maqsadi ularni axborot va adabiyot bilan to'liq va samarali ta'minlashdan iborat [1].

"Kitob"- "kitobxona"- "kitobxon" umumiy birlashgan tuyg'ularni aks ettiradi. Ularni bir-biridan ajratib ta'rif berish qiyin. XXI asr axborot asri deb atalayotgan bir davrda yosh avlodning turli axborot xurujlariga berilishi global muammoga aylandi. Natijada zamonaviy axborot makonida yashayotgan yoshlarning kitobxonlik madaniyatidan yiroqlashuviga, ma'naviyatning, intellektual ongning qashshoqlashishiga, milliy-ma'naviy qadriyatlarining pasayishiga olib kelmoqda. Shuning uchun ham Yangi O'zbekistonda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish Davlatimiz olib borayotgan keng ko'lamli ishlardan bo'lib, bu tizimni rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvar kuni "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishida va shu yili qabul qilingan "Kitob mahsulotlarini nashr

etish va tarqatish tizmini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora – tadbirlar dasturi to'g'risida"gi 2017 - yil 13 – sentyabrdagi Qarori orqali bir qator vazifalar belgilanib, muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Kitob nashr qilish, kitobxonlarga yetkazish, nashrlarni estetik jihatdan talablarga javob berishi, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish kabi masalalar hal etildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2020 – 2025 – yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab quvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorida ham yoshlarni kitobxonlikka jalb qilish, kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, kutubxonalarda foydalanuvchilarga zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan foydalanib axborotga bo'lgan talablarini to'liq qondirish, targ'ibot – tashviqot ishlarini samarali tashkil etish kabi vazifalar belgilanib amalga oshirish yo'llari ko'rsatib o'tildi. Qarorda aholi, ayniqsa yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual tarbiyani o'stirishga xizmat qiladigan kitoblarga bo'lgan talabni o'rganish, shu jumladan, ijtimoiy so'rovlar orqali aniqlash, nashriyotlar tomonidan chiqarilgan badiiy, ma'rifiy, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishga doir adabiyotlarning, shu jumladan, elektron resurslarni ko'paytirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tildi [2.] Bu ishlarni hal etishda foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishning zamonaviy usullaridan foydalanib, kutubxonalar Yangi O'zbekistonning strategiyasini amalga oshirishga salmoqli hissasini qo'shmoqda.

Bugungi kunda kitobxonlikni yuksaltirishda mutolaa madaniyatini shakllantirish, o'qish madaniyatini tarbiyalash borasida uzliksiz ishlar amalga oshirilmoqda. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o'z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e'tibor berish zarur. Sosiolog olim A. Umarov fikricha: "Mutolaa" madaniyati yuksaltirish ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va ta'lim tizimlari, ommaviy axborot vositalari orqali yetkazish eng maqbul yo'l hisoblanadi [3.]

Kutubxonashunos olim professor E.Yoldoshevning fikricha "O'qish madaniyati" - kitobga qiziqish, uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishish, kitob bilan ishlash bilimlarini bilish, kutubxona resurslaridan foydalana olish, ma'lumotlarni qidirish yo'llarini bilish, tushinib o'qish demakdir [4.]

Yana shuni aytish kerakki yozuvchi H.To'xtaboyev - xorijiy mamlakatlarda kitobxonlik fan darajasiga ko'tarilganligi, kitobni o'qish, tanlay olish, mag'zni chaqish, axborot olishga mayl, havas ishtiyoq bo'lishi kabi ko'nikmalar zarur deb hisoblaydi. Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishda quyidagilar muhim:

**1. Yoshlarni kitob o'qishga jalb qilish.** Bugungi kunda bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi, chunki, yoshlarning kitobxonlik darajasi qoniqarli emas. Bu ijtimoiy muammodan chiqib ketishning yagona yo'li bog'chada tarbiyachi, maktabda o'qituvchi, oliygohlarda professor-o'qituvchilar, uyda ota-ona bolalarning kitob o'qish ko'nikmasini hosil qilishi kerak. Bunda oddiydan murakkablikka, ya'ni asta sekinlik bilan yosh xususiyatiga mos bo'lgan kitoblar tavsiya etib borish kerak. Shuningdek, ta'lim tizimi o'quv rejalariga "o'qish madaniyati", "kitobxonlik" yoki "mutolaa" kabilarni asosiy fanlar majmuiga kiritish lozim. Fan sifatida badiiy adabiyotlarni erkin tanlash, har bir o'qilgan adabiyotlarni tahlil qilish va guruhlarda kitobxonlik konferensiyalar tashkil qilish orqali o'quvchilar birdaniga bir necha adabiyotlar bilan tanishish imkoniyati yaratiladi.

**2. Yoshlarni kitob tanlashda yordamlashish.** Axborot-kutubxona mutaxassislarining yoshlarda kitob o'qish ko'nikmasini hosil qilishdagi ilk vazifasi kitob tanlashda yordam berishdir. Ularning saviyasiga mos bo'lgan adabiyotlarni targ'ib qilish, ularni kitobxonlik olamiga olib kirish, jamiyatning munosib fuqarosi, mustaqil davlatimizning yetuk, barkamol insonlari bo'lib yetishishi, munosib kasb egasi bo'lishi uchun kutubxonachilar bor imkoniyatlarini ishga solishlari zarur. Buning uchun yoshlarda kitob o'qish madaniyatini tarbiyalash, birinchi galda badiiy adabiyotlarni, keyinchalik sohalar bo'yicha kitoblarni tavsiya etish muhim omil hisoblanadi.

**3. Kitob o'qish madaniyatini tarbiyalash.** Kutubxonachi kitobxon o'qishiga rahbarlik qilar ekan avvalo, birinchi kundanoq o'smirning ma'naviy dunyosi, oilaviy sharoiti, tarbiya muhiti,

qiziqishi, dunyoqarashi va ruhiy xususiyatlari hisobga olgan holda, kitobxon bilan ishlash kerak. Kitobxonga kutubxonadan mustaqil foydalanish, kutubxona kataloglaridan foydalanib kitob qidirish, erkin fikrlash, kitob tanlash va mustaqil harakat qilishga yordamlashish kerak.

**4. Kitob o'qishni tahlil qilish.** Kutubxonachi kitobxonni o'qishini doimo nazorat qilishi, tahlil qilishi lozim. Buning uchun kitobxon bilan uzviy muloqat qilishi, kitobxonni o'qish madaniyatini kuzatib borishi, kitobxon formulyarini tahlil qilishi, qiziqishi orqali kasbga yo'llantirishi, kitobxonning o'qishini monitoringini olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Monitoring, kitobxonlik kechalari, muloqot, davra suhbatlari, turli mavzularda munozaralar, ilmiy-amaliy anjumanlar, suhbatlar, sosiologik tadqiqotlar va analitik tekshiruvlar vositasida amalga oshirilishi mumkin. Kitob tanlashda faqat mumtoz o'zbek adabiyotlarigina emas, balki qardosh va chet el adabiyoti vakillarining adabiyotlarini ham kitobxonga tavsiya etish zarur. Kitobxonlikda eng muhimi oilada kitobga mehr uyg'otish, uni avaylab-asrashni tarkib toptirishdir. Azaldan xalqimiz "kitob" har narsadan aziz, uni avaylab asrash, o'qish orqali orzu-umidlariga erishganliklarini farzandlariga tushintirishlari, kitobga bo'lgan mehri singdirib borishlari muhim omil bo'lib hisoblanadi. Buyuk adiblarimiz hayoti va ijodi, yaratgan nodir adabiyot durdonalari, kitoblarni qanday avaylab-asraganlari, juda ko'p o'qiganlarini qiziqarli bahslar orqali yetkazish lozim. Kitob mutolaasi bilan xulq-atvorning shakllanishi, dunyo go'zalligiga oshno bo'lishi, madaniy boyliklardan huzur qilishi, jamiyatda o'z-o'rnini topishiga erishish kitobxonlikning muhim jihati. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, barkamol avlodni tarbiyalashda kitobxonlik muhim masala ekanligi, yoshlarda kitob o'qish madaniyatini oshirishimiz bugungi kun davr talabi ekanligini unutmasligimiz lozim. Buning uchun kutubxonachilar, oila, tarbiya maskanlari birdek ma'suldirlar. Shundagina Yangi O'zbekiston taraqqiyoti talablarini amalga oshirishimiz, har tomonlama yetuk mutaxassislar, ziyoli yoshlarni jamiyatimizda o'z o'rnini egallashiga betakror hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mannonov, Yu.O. Kutubxonachilik ishi tarixi: o'quv qo'llanma /Yu.O. Mannonov, K.G' Mavlyanov.- Toshkent: "Tafakkur Bo'ston".-2017.-148b.
2. Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори 2017 йил 13 сентябрь // Халқ сўзи.-2017.- 14 сент.
3. Умаров. А. Мутола маданияти: шахс, жамият тараққиёти: монография/ А. Умаров.- Тошкент: Фан, 2004.-194 б.
4. Юлдошев, Э. Кутубхонада болалар ўқишига раҳбарлик қилиш: ўқув қўлланма.- Тошкент: Ўзбекистон, 2002.- 128 б.
5. www.google.uz

*Mannonov Yusup Otaxonovich - O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti. Kutubxona - axborot faoliyati fakulteti. Kutubxona-axborot faoliyati kafedrasida dotsenti v. b. Tel: 93 562 26 28 Mannonovyusuf@gmail.com.*